# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJONVILOYATI BULOQBOSHI TUMANI HOKIMINING QARORI

Buloqboshi t, Mirzakalon Ismoiliy ko’cnasi 6-uy

2022 - yil 9 - noyabr 228-1-20-Q/22 Buloqboshi tuman hokimligi

## Buloqboshi tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

Buloqboshi tumanida “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari”ga rioya etilishini ta`minlash, tuman hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

**Q A R O R Q I L A M A N:**

1. Buloqboshi tuman ichki ishlar bo‘limi hamda tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining Buloqboshi tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo`l belgilari o‘rnatishga ruxsat berish to`g`risidagi xatlari inobatga olinsin.

2. 4r-251 “A-373 Toshkent-O`sh avtomobil yo`lidan Buloqboshiga kirish” avtomobil yo‘lining 7-8 oralig`ining kilometri 600-metrining o`ng taraf qismiga 1 dona 3.27 yo‘l belgisi o`rnatishga ruxsat berilsin.

3. Buloqboshi tuman ichki ishlar bo‘limi (J.Qosimov), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (I.Sobirov)larga ushbu yo‘l belgisini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qaror “Buloqboshi” gazetasi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Туман ҳокими**  **O'.Mamurov**